

Xorijdagi vatandoshlarimizdan matematiklar uchun yana bir onlayn seminar

2020-yil 20-avgust kuni O'zR FA Matematika instituti va M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filiali hamkorligida oliy ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari uchun seminar tashkil etildi. Seminarda Avstraliya davlatining Monash universiteti Malayziya filiali professori Akram Hasanov "Elektron ta'lif boshqaruv tizimlarida R dasturidan foydalanish" mavzusida ma'ruza qildi.



MONASH
BUSINESS

How to deploy the power of R in e-learning management systems?

Akram Hasanov

20 August 2020



Ma'ruzada R dasturlash tilidagi "exams" paketining imkoniyatlari ba'zi kodli fayllar orqali namoyish qilindi. R dasturi yordamida ma'lumotlarni hosil qilish jarayonini o'z ichiga olgan dinamik hujjatlar shaklidagi mashqlarni hosil qilish hamda ushbu mashqlarni Moodle yoki Blackboard kabi ta'lif boshqaruv tizimlariga qulay tarzda joriy etish usullari ko'rsatildi. Shuningdek, bu bilan har bir talaba uchun tezkor yechim va individual fikr-mulohazalarni taqdim etish imkoniyatlari haqida ma'lumot berildi.